

ОБРАЗОВАНИЕ,

НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 59
Часть-12_Декабрь -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Декабрь - 2024 год

ЧАСТЬ - 12



Google
Scholar



JOURNALS
MASTER LIST

FARG'ONA VODIYSI VA UNING ARXEOLOGIK JIHATDAN O'RGANILISHI

THE FERGANA VALLEY AND ITS ARCHAEOLOGICAL STUDY
ФЕРГАНСКАЯ ДОЛИНА И ЕЁ АРХЕОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. A. Sarimsokov

Sobitov To'xtanazar Abdulhamid o'g'li

Namangan davlat universiteti Tarix fakulteti 70220401

Arxeologiya mutaxassisligi magistranti

Telefon: +998 94 590 90 77

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg'ona vodiysining arxeologik jihatdan o'rganilishi va uni o'rgangan olimlar haqidagi ma'lumotlar bayon qilingan. Shuningdek maqolada, 1885-yil fevral oyida sharqshunos olim O'rta Osiyo tarixi va N.I.Veselovskiy tomonidan amalga oshirilgan ekspeditsiya, o'tgan asrning 30-yillarida B.A.Latinin boshchiligidagi ekspeditsiya, A.P Okladnikov tomonidan Teshiktosh g'orida hamda akademik Ahmadali Asqarov tomonidan Buonamozorda olib borilgan arxeologik izlanishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Abstract: This article presents information about the archaeological study of the Fergana Valley and the scholars who have researched it. It also discusses the expedition conducted in February 1885 by the Orientalist and historian of Central Asian history N.I. Veselovsky, the expedition led by B.A. Latin in the 1930s, as well as the archaeological research carried out by A.P. Okladnikov in the Teshiktash cave and by academician Ahmadali Askarov in Buonamozor.

Аннотация: В данной статье изложены сведения о археологическом исследовании Ферганской долины и ученых, которые занимались её изучением. Также в статье рассказывается о экспедиции, проведенной в феврале 1885 года востоковедом, исследователем истории Центральной Азии, Н.И. Веселовским, о экспедиции, возглавляемой Б.А. Латиным в 30-е годы прошлого века, а также об археологических исследованиях, проведенных А.П. Окладниковым в пещере Тешикташ и академиком Ахмадали Аскаровым в Бояномазаре.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, N.I.Veselovskiy, B.A.Latinin, A.P.Okladnikov, A.Asqarov, A.N.Bernshtam, I.A.Kastanye, Teshiktosh g'ori, Buonamozor manzilgohi, Axsikent yodgorligi, chopperlar.

Keywords: N.I.Veselovsky, B.A.Latin, A.P.Okladnikov, A.Askarov, A.N.Bernshtam, I.A.Kastanye, Fergana Valley, Teshiktash Cave, Buonamozor (or Buonamozor settlement), Akhsikent (archaeological monument), choppers.

Ключевые слова: Н.И.Веселовский, В.А.Латин, А.П.Окладников, А.Асқаров, А.Н. Бернштам, И.А. Кастанье, Ферганская долина, Пещера Тешикташ, Буанамазар (или Буанамазарская стоянка), Ахсикент (археологический памятник), чопперы

Qadim Farg'ona o'z bag'rida ming yilliklar sirlarini yashirgan qadimiy maskandir. Bu yerda juda qadim zamonlardan buyon odamlar yashab kelmoqda. Albatta, bunga vodiyni o'ziga xos go'zal, har tomonlama qulay tabiati sabab bo'lgan. XX asr davomida Farg'ona vodiysida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, bu mintaqa hududi bronza davrida Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi madaniy-zo'jalik ta'sitidan uzoq bir o'lka hisoblangan. O'sha kezlarda Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasi, hatto, Amudaryoning quyi havzalari ham chorvador tur va sak qabilalari keng tarqalgan o'lkalar edi¹.

Farg'ona vodiysidagi sersuv daryolar, katta-kichik ko'llar va serunum yerlar bu yerda qadimgi odamlarning hayot kechirishlari uchun o'ta muhim bo'lgan ibtidoiy chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishida zamin hozirlagan. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, Farg'ona tog' qiyaliklarida umumiy uzunligi 2800 kilometr ga teng bo'lgan mingtagacha daryo irmoqlarini sanash mumkin².

Bundan tashqari, qadim Farg'onada eramizdan avvalgi II mingyillikda paydo bo'lgan shaharlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va gullab-yashnashida vodiylar orqali o'tgan, bir necha yuz yillar davomida qadimgi sharq va g'arb xalqlarini bir-biriga o'zaro madaniy, iqtisodiy tomondan bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'lining roli ham beqiyos bo'lgan.

Umuman olganda, ibtidoiy davrlardan boshlab odamlarning Farg'ona vodiysini makon tutganligi arxeologiya fani o'lkamizga kirib kelgan dastlabki paytlardayoq sharqshunos olimlar diqqatini har vaqt o'ziga tortgan. Mazkur hudud arxeologiyasi va tarixini o'rganish maqsadida XIX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-arxeologik tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi.

Ana shunday ilmiy-ekspeditsiyalardan dastlabkisi 1885-yilda uyushtirilgan. Ushbu ishga Nikolay Ivanovich Veselovskiy boshchilik qilgan. U qabr toshlardan yasalgan Mukxona (Mukovlar uyi) ni birinchi bo'lib qadimiy qabrlar sifatida aniqladi va tavsiflab berdi. Ivanovich o'rgangan kurumlarning umumiy sonidan faqat beshtasi saqlanib qolgan. Bulardan tashqari ekspeditsiya loy idishlar, tosh eshaklar va temir pichoqlar; ko'pburchak qabrlar, va dumaloq metall oyna kabi bronza asboblarni topgan. Shuningdek, Veselovskiy uchta qadimiy poytaxt - Axsi, Koson va O'zgan

¹ Асқаров А. Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тарихидан лавҳалар. – Т.: Фан, 2023. – Б. 102.

² Ҳасанов И.А., Ғулломов П.Н., Қаюмов А.А. Ўзбекистон табиий географияси. 2-қисм. – Т.: 2010. – Б. 144.

xarobalarida qazish ishlari olib borgan. O'shda Sulaymon tog'ida arab yozuvini topdi va uni tarjima qilgan³.

1930-yilda amalga oshirilgan navbatdagi ekspeditsiya ham ahamiyatga molik. 1930-1934-yillar oralig'ida B. A. Latinin rahbarligida amalga oshirilgan ushbu ekspeditsiya natijasida Farg'ona vodiysi daryo bo'ylari arxeologik jihatdan o'rganilgan. Xususan, Uchqo'rg'on dashtlarida va daryo bo'ylarida tadqiqotlar amalga oshirgan. Tojikistonning Isfara hududida arxeologik joylar va qadimgi sug'orish qoldiqlarini aniqlashga qaratilgan izlanishlar olib borilgan. Ushbu izlanishlar natijalari 350 dan ziyod fotosuratlarda o'z ifodasini topgan.

B.A.Latinin birinchilardan bo'lib Farg'ona vodiysi ilk o'rta asrlar arxeologiyasi masalasini ko'targan. Izlanishlari natijasida u vodiylar madaniyati tarixida 4 ta rivojlanish bosqichini ajratgan. Orada biroz vaqt o'tgach, B.A.Latinin 1961-yilda bu davriy jadvalni yangi materiallar bilan boyitdi va qadimgi dehqonchilik madaniyatlarini materiallarini uch bosqichga bo'ldi. Shu bilan birga, ushbu davrlashtirish ayrim kamchiliklardan holi emas. Bular qatoriga materiallar kamchiligi oqibatida vujudga kelgan sxematizmni keltirib o'tish mumkin. Shunga qaramay, B.A.Latinin Farg'ona tarixida birinchi bor ilk o'rta asrlar kompleksini alohida ko'rsatib uni o'rganishni boshlab berdi⁴.

O'zbekiston hududida o'rta paleolit davriga oid arxeologik yodgorlik birinchi marta mashhur arxeolog A.P.Okladnikov tomonidan 1938-1939-yillarda Surxondaryo viloyatining Boysun tog'laridagi Teshiktosh g'orida aniqlangan. Mazkur manzilgohdan 10-11 yoshlardagi neandertal tipiga mansub bo'lgan yosh bolaning suyaklari topilgan. Ushbu topilmani taniqli antropolog M.M.Gerasimov qayta tiklashga muvaffaq bo'lgan. Bundan tashqari, Teshiktosh g'oridan uch mingga yaqin turli shakldagi chopperlar (qo'pol tosh qurollari) hamda gulxxan izlari ham topilgan. Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, o'lkamiz hududida ibtidoiy jamoa davrida ham qadimgi insonlar istiqomat qilishgan.

Farg'ona vodiysidan esa so'nggi paleolit davriga mansub yodgorliklar topilgan. Mashhur akademik olimlar A.P.Okladnikov, Ya.G'.G'ulomov, O'.Islomov, arxeologlar M.R.Qosimov, V.A.Ranov, P.T.Konoplyalarning boshchiligi va ishtirokida So'x, Xo'jaxayr, Quvasoy kabi soy irmoqlarida joylashgan g'orlar va daralardan turli yillarda bir necha manzilgohlar qazib o'rganildi. Ular orasida O'.Islomov, A.P.Okladnikov hamda M.R.Qosimovlar sezilarli natijalarga erisha oldilar.

1947-1948-yillarda A.N.Bernshtam boshchiligidagi Pomir-Oloy ekspeditsiyasi

³ Императорская археологическая комиссия (1859–1917). SAN-PETERBURG 2009.С.792

⁴ Матбобоев.Б. Қадимги Фарғонанинг ilk ўрта асрлар даври маданияти. – Самарқанд: 2009. – Б. 7.

Pomir va Namangan viloyatida razvedka ishlarini olib bordi. Yu.A.Zadneprovskiy va S.S.Sorokin ishtirokidagi ushbu ekspeditsiya Tojikistondagi bir qancha qabrlarni o'rgandi, arxeologik yodgorliklarni ochdi⁵.

1982-1984-yillarda akademik Ahmadali Asqarov rahbarligida Yu.A.Zadneprovskiy, B.H.Matboboyev, M.B.Meitarchiyan. U.Rahmonov va Y.A.Volkovlar ishtirokida Buonamozor yodgorligining markaziy, janubiy va g'arbiy qismlarida qazishma ishlari o'tkazildi.

Farg'ona vodiysidagi ahamiyatga molik bo'lgan yodgorliklardan yana biri hisoblanda Axsikent hisoblanadi. Qadimiy Axsikentda dastlabki arxeologik ishlar 1885-yilda N.I.Veselovskiy tomonidan o'tkaziladi. U shahar xarobalarining beshta joyida qazishma o'tkazib, uy-ro'zg'or va sopol buyumlar, tangalar topishga muvassar bo'ladi. Mahalliy aholida mavjud bo'lgan topilmalar ham yig'ib olinadi va o'sha davrdagi Toshkent muzeyiga yuboriladi.

1914-yilda Axsikentda qazishma ishlarini olib borgan I.A.Kastanye va N.I.Veselovskiy o'z hisobotlarida shahar tarixini o'rganish masalalari, qazishma ishlarining bayoni beradi hamda shahar plani tuzib, ilova qilishadi. Ammo tadqiqotlar ancha yuzaki bo'lib, ular bir qancha chalkashliklarga yo'l qo'yadilar. Xususan, ilovada shaharning rabot va qabriston qismi almashtirib ko'rsatiladi.

Shu tariqa, rus olimlari tomonidan turli davrlarda Axsikentda o'tkazilgan arxeologik kuzatuv va qazishmalar natijasida muhim tarixiy ma'lumotlar to'planadi va dastlabki arxeologik fikrlar ilgari suriladi⁶. Ularning qarashlarida ba'zi chalkashliklar mavjud bo'lsa-da, shahar tarixini o'rganishda dastlabki ma'lumotlar aniqlanganligi katta yutuqdir.

Mustaqillikdan keying yillarda ham arxeologik ekspeditsiyalar soni kamaygani yo'q. Xususan, Axsikent yodgorligida arxeolog olim Abdulhamid Anorboyev rahbarligida keng ko'lamli izlanishlar olib borildi va ayni kunlarda ham bu izlanishlar davom ettirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Асқаров А. Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тарихидан лавҳалар. – Т.: Фан, 2023. – Б. 360.
2. Бернштам А.Н., Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. №26.1952; YRD. DOÇ. DR. CENGİZ BUYAR TÜRK TARİHİ

⁵ Бернштам А.Н., Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. №26.1952; YRD. DOÇ. DR. CENGİZ BUYAR TÜRK TARİHİ ARAĞTIRMACISI OLARAK A.N. BERNGTAM VEESERLERI// MANAS SOSYAL ARAŞTIRMALAR DERGISI 2016. C.198.

⁶ Қосимов И.Қ. Қадимгм Фарғона сирлари. – Намангон: 1992. – Б. 61-62.

ARAĞTIRMACISI OLARAK A.N. BERNĞTAM VEESERLERI// MANAS
SOSYAL ARAŞTIRMALAR DERGISI 2016. C.198.

3. Императорская археологическая комиссия (1859–1917). SAN-PETERBURG
2009.С.792
4. Матбобоев.Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти. –
Самарқанд: 2009.
5. Қосимов И.Қ. Қадимги Фарғона сирлари. – Намангон: 1992. – Б. 61-62.
Ходжаев, 2009 – Б. 88.
6. Ҳасанов И.А., Гуломов П.Н., Қаямов А.А. Ўзбекистон табиий
географияси. 2-қисм. – Т.: 2010. – Б. 144.

AKADEMIK O'TKIR ISLOMOVNING OBISHIR G'ORLARIDA OLIV BORGAN ARXEOLOGIK IZLANISHLARI

THE ARCHAEOLOGICAL INVESTIGATIONS CONDUCTED BY
ACADEMICIAN UTKIR ISLAMOV IN THE OBISHIR CAVES
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, ПРОВЕДЕННЫЕ
АКАДЕМИКОМ УТКИР ИСЛАМОВЫМ В ПЕЩЕРАХ ОБИШИР

Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. A. Sarimsokov

Sobitov To'xtanazar Abdulhamid o'g'li

Namangan davlat universiteti Tarix fakulteti 70220401

Arxeologiya mutaxassisligi magistranti

Telefon: +998 94 590 90 77

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli o'zbek arxeologi akademik O'tkir Islomovning Farg'ona vodiysidagi qadimgi tosh davriga oid Obishir g'orlarida amalga oshirgan arxeologik tadqiqotlari haqida bayon qilingan. Shuningdek, ushbu manzilgohdan topilgan ko'plab mehnat qurollari, xo'jalik buyumlari hamda topilmalarning o'ziga xos tomonlari haqida xulosalar berishga harakat qilindi.

Abstract: This article discusses the archaeological research conducted by the famous Uzbek archaeologist Academician Utkir Islamov in the Obishir caves of the Fergana Valley, which date back to the ancient Stone Age. Additionally, the article attempts to draw conclusions regarding the unique features of the numerous tools, household items, and other findings discovered at this site.

Аннотация: В статье рассматриваются археологические исследования, проведенные известным узбекским археологом академиком Уткиром Исламовым в пещерах Обишир Ферганской долины, относящихся к древнему каменному веку. Также сделана попытка подвести итоги о характерных особенностях множества найденных трудовых орудий, хозяйственных предметов и других артефактов с этого памятника.

Kalit so'zlar: mikrolitlar, bigizlar, parrakchalar, "Obishir madaniyati", Machay, M.Qosimov, O'.Islomov, A.Berdimurodov, V.I.Timofeyev

Keywords: microliths, scrapers, flakes, "Obishir culture", Machay, M. Qosimov, U. Islamov, A. Berdimuradov, V.I. Timofeyev

Ключевые слова: микролиты, скребки, осколки, «Обиширская культура», Мачай, М. Косимов, У. Исламов, А. Бердимуратов, В.И. Тимофеев

Farg'ona vodiysi, uning janubidagi tog'lik hududlardan o'rta tosh davriga oid bo'lgan makonlar juda ko'p topilgan. Ularning asosiy qismi Sirdaryo yoqasida qadimda mavjud bo'lgan ko'llar atrofida aniqlangan. G'or-makonlar Farg'ona

vodiysining So'x daryosi yuqori oqimida joylashgan. Xususan, bu qatorga vodiydagi Qatrontog'ning janubiy qismlarida topilgan Obishir – 1 va Obishir – 5 yodgorliklarini qo'shish mumkin. Obishir – 1 yodgorligi Haydarkon shaharchasidan 4 – 5 km g'arbda joylashgan bo'lib, kengligi 25,5, balandligi 12, chuqurligi esa 5 – 6 metrni tashkil etadi. G'orning og'zi janubga qaragan¹.

Obishir yodgorligiga tegishli boshqa g'orlardan ham o'rta tosh davriga mansub bo'lgan ko'plab ashyolar topib o'rganildi. Ushbu topilmalar Markaziy Osiyoda xuddi shu kabi boshqa yodgorliklarning o'rganilishiga turtki bo'ldi. Ushbu g'orlarning Farg'ona vodiysida ilk marta o'rganilishi, boshqa yodgorliklarni o'rganilishiga asos bo'lishi va arxeologiya fanida yangilik ekanligi sababidan "Obishir madaniyati" deb ataldi.

Mazkur madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari O'tkir Islomovning o'nlab maqolalarida, "Obishir madaniyati" deb nomlangan monografiyasida yoritib berildi. Yodgorliklarni o'rganish mobaynida topilgan ashyolar O'zbekiston tarixida o'zgacha sahifalar ochdi. Xususan, odamlar O'rta Osiyo hududlarida paleolit davridan buyon uzluksiz hayot kechirib kelayotganliklari o'z isbotini topdi.

Obishir g'orlar turkumi, asosan, kunchiqar tomonga qaragan bo'lib, g'orlardan yetmish-sakson metr pastlikda soy oqadi. Soyning chap qirg'og'i tekislikdan iborat bo'lib, ehtimol, o'sha vaqtlarda to'qayzorlardan iborat bo'lgan bo'lishi mumkin. G'orlarning oldida supalar bor. Ibtidoiy odamlar havo iliq paytlarda ana shu supalarda yashagan bo'lsalar kerak. Qazish paytida topilgan har xil tosh qurollar va o'choq qoldiqlari bu fikrlar uchun asos bo'la oladi. Bu g'orlarni sinchiklab o'rgangan arxeolog olimlar Mirvohid Qosimov, O'tkir Islomov, A.Berdimurodovlar ham shu fikrga kelganlar.²

Obishir – 1 g'or makonidan ko'plab turdagi mayda tosh qurollari topilgan. Mikrolitlar, bigizlar, plastinkalar, qirg'ichlar va parrakchalar shular jumlasidandir. Ushbu qurollarning ko'pchiligi Farg'ona vodiysi va Markaziy Osiyoning boshqa hududlaridan topilgan o'rta tosh davri tosh qurollariga juda o'xshash. Shu sababli Obishir – 1 manzilgohidan topilgan tosh qurollarni ham o'rta tosh davriga oid, deyishimiz mumkin.

Obishir – 5 g'or-makoni Obishir – 1 manzilgohidan taxminan 200 metr g'arbda joylashgan. Uning balandligi – 10 m, kengligi – 8 m, chuqurligi esa 4 – 5 metrni

¹ Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси: Олий ўқув юрт. студ. учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 60.

² Қосимов И.Қ. Қадимгм Фарғона сирлари. – Намангон: 1992. – Б. 14.

tashkil etadi. Mazkur g'or-makoni ham Obishir – 1 singari janub tomonga qaragan bo'lib, unda 3 ta madaniy qatlam mavjud.

Obishir – 5 manzilgohining quyi qatlamlaridan pichoq qadamalari, keskichlar, oq-qora va kulrang chaqmoqtoshdan ishlangan mayda tosh tosh qurollar, qirg'ichlar, o'roqlar va boshqa turdagi mehnat qurollari topib o'rganilgan. Shu bilan bir qatorda, manzilgohdan yirik uchirindi hamda dag'al parraklar topilgan ham topilgan. Qadimgi odamlar bu kabi topilmalardan ham qurol sifatida foydalanganliklari mutaxassislar tomonidan taxmin qilinadi. Bundan tashqari, mazkur g'or-makon qatlamlarida ko'p turdagi yovvoyi hayvonlarning suyak qoldiqlari ham uchratish mumkin.

Obishir V qurollari o'zining ishlanish texnikasi jihatidan xuddi Obishir I dan topilgan qurollarga aynan o'xshaydi. Demak, Obishir V g'or-makonining quyi qatlamlaridan chiqqan tosh qurollar va boshqa buyumlar, shuningdek, baliq tutishda ishlatiladigan guruhlar – qadoq toshlar ham o'rta tosh asri -mezolitga mansub bo'lishi mumkin³.

1966-yil Obishir I makonida kichkina qidiruv shurfi qazib ko'rilganda buzilmagan madaniy qatlam va undan qayroqtosh qurollar bilan bir qatorda, mikrolit qurollar ham topilishi juda ahamiyatli bo'ldi. Shu yilning o'zida Obishir V makoniga 2 ta qidiruv shurfi tashlanib, qiziqarli arxeologik manbalar qo'lga kiritilgan. 1966-1967-yillar, 1969-1971-yillar va 1973-yillar bu makonlarda tizimli ravishda qazilmalar o'tkazildi. Bu tadqiqotlar asosida to'plangan arxeologik manbalar asosida, aniqrog'i, tipologik analiz yodgorliklarni o'rta mezolit davri moddiy madaniyatiga taalluqli ekanligini ko'rsatdi. Ana shu materiallar asosida O'.Islomov Obishir madaniyatini mustaqil mezolit davri madaniyati sifatida ilmiy asoslagan. So'xdan topilgan Obishir I va V makonlari bilan bir qatorda ochiq holatdagi Chashma manzilgohi ham topilgan. Keyingi yillarda vodiyni neolit davri jamoalari madaniyati tadqiqoti ishlari, asosan, O'.Islomov, V.I.Timofeyevlar tomonlaridan bajarilib, tadqiqotlar natijasi sifatida mustaqil «Markaziy Farg'ona» neolit madaniyati ajratilib, ilmiy asoslangan⁴.

Obishir – V g'orining ustaxona deb atalgan makonlaridan chaqmoqtosh parraklari kabi qurollar yasash ishlari olib borilganligiga hech qanday shubha yo'q. Ayni vaqtda bu g'orlarda yashagan ibtidoiy odamlar yaqinidagi qoya toshlarga har xil hayvon va ov manzaralarining tasvirlarini tushirganlar. Mohirlik bilan ishlangan bu suratlar ibtidoiy odamlarning ov qilish texnikasi va qanday hayvonlarni ovlaganliklaridan dalolat beradi. Bu masala ham o'sha davr tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi va yordam beradi. Obishir tipidagi g'orlar O'zbekistonda yagona

³ Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси: Олий ўқув юрт. студ. учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 63.

⁴ Xolmatov N.O'. O'rta Osiyo arxeologiyasi: Tosh asri. – Samarqand: 2020. – B. 31 – 32.

emas, albatta. Bunday g'orlar Toshkent viloyatining Qo'shilish, Surxondaryo viloyatining Machay g'orlaridan ham topib o'rganilgan⁵.

Shu tariqa, Obishir g'orlar turkumi va undagi ko'plab topilmalar nafaqat Farg'ona vodiysining, balki O'zbekistonning kam o'rganilgan qadimiy tarixini o'rganishda juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси: Олий ўқув юрт. студ. учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 160.
2. Қосимов И.Қ. Қадимгм Фарғона сирлари. – Намангон: 1992. – Б. 14 – 88.
3. Xolmatov N.O'. O'rta Osiyo arxeologiyasi: Tosh asri. – Samarqand: 2020.

⁵ Қосимов И.Қ. Қадимгм Фарғона сирлари. – Намангон: 1992. – Б. 14 – 16.

AKADEMIK O'TKIR ISLOMOV TOMONIDAN SELUNG'UR G'ORINING O'RGANILISHI

STUDY OF SELUNG'UR CAVE BY ACADEMICIAN UTKIR ISLAMOV
ИССЛЕДОВАНИЕ ПЕЩЕРЫ СЕЛУНГУР АКАДЕМИКОМ
УТКИРОМ ИСЛАМОВЫМ

Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. A. Sarimsokov

Sobitov To'xtanazar Abdulhamid o'g'li

Namangan davlat universiteti Tarix fakulteti 70220401

Arxeologiya mutaxassisligi magistranti

Telefon: +998 94 590 90 77

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg'ona vodiysidagi tosh davrining ilk davrlariga oid bo'lgan Selung'ur manzilgohi va bu yerda arxeolog O'Tkir Islomov tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar haqida bayon qilingan. Shuningdek, ushbu manzilgohdan topilgan ko'plab mehnat qurollari, xo'jalik buyumlari hamda topilmalarning o'ziga xos tomonlari haqida xulosalar berishga harakat qilindi.

Abstract: This article discusses the Selung'ur settlement in the early Stone Age located in the Fergana Valley and the archaeological research conducted by Academician Utkir Islamov. Furthermore, the article attempts to draw conclusions about the distinctive features of numerous tools, household items, and other findings discovered at this site..

Аннотация: В данной статье рассматривается поселение Селунгур, относящееся к эпохе раннего камня в Ферганской долине, а также археологические исследования, проведенные академиком Уткором Исламовым. Кроме того, в статье попытались сделать выводы о характерных особенностях многочисленных орудий труда, хозяйственных предметов и других находок, обнаруженных на этом поселении.

Kalit so'zlar: "Homo sapiens", "Fergantrop", "Obiraxmat odami", chopperlar, plastinalar, tosh randalar, nukleus, kliver, A.P.Okladnikov, O'.Islomov, M.Qosimov

Keywords: "Homo sapiens", "Fergantrop", "Obirakhmat Man", choppers, flakes, stone scrapers, nucleus, cleaver, A.P. Okladnikov, U. Islamov, M. Qosimov

Ключевые слова: "Homo sapiens", "Фергантроп", "Обирахмат человек", шоперы, пластины, каменные скребки, нуклеус, кливер, А.П. Окладников, У.Исламов, М.Қосимов

Selung'ur g'ori Farg'ona vodiysidagi So'x tumanida joylashgan qadimiy manzilgohlardan biri hisoblanadi. Farg'ona shahridan taxmiman 100 km janubiy g'arbda, joylashgan bu ulkan g'orning uzunligi 120 m, kengligi 34 m va balandligi 25 metrdir. G'orda O'.Islomov tomonidan qazish ishlari olib borilgan bo'lib, g'or 5 ta madaniy qatlamlardan iborat. Bu davr yodgorligidan topilgan ashyolar insoniyatning "go'daklik davri" – ilk paleolitning so'ngi davrlariga oidligi bilan xarakterlanadi¹.

Selung'ur yodgorligi joylashgan joy dengiz sathidan 2000 metr balandlikda hisoblanadi. Ushbu g'or makoni 1955 yili A.P.Okladnikov va V.Konopley tomonidan ochilgan va dastlabki tekshiruv ishlari amalga oshirilgan. 1965-yili M.Qosimov yodgorlikda qisman arxeologik qazishma ishlarini olib borgan. Selung'ur g'or makoni 1980-yildan akademik O'.Islomov tomonidan muntazam ravishda o'rganila boshlangan.

Selung'ur g'orining kengligi 34 m, chuqurligi 120 m, balandligi esa 25 metrni tashkil etadi. Haydarkon botiqligi O'zbekiston va Qirg'iziston hududlari bilan bog'liq bo'lgan vohadir. Bu joyda A.P. Okladnikov 1955-yildan e'tiboran arxeologik tekshiruv ishlarini amalga oshirgan va 1958-yili Selung'ur g'orini aniqlab, undan tosh qurollarini topgan. 1964-yilda yana bu yodgorlikda arxeologik qazilmalarni olib borgan².

Selung'urdan turli shakldagi ko'plab tosh qurollar, hayvon suyaklari qoldiqlari topilgan. Mazkur kolleksiyada yirik tosh qirg'ichlar, qo'l cho'qmori, pichoqlar, ko'p miqdorda o'yib ishlangan tishsimon qurollar mavjud. Madaniy qatlamlardan 32 turdagi yirtqich, tuyoqli, mayda sut emizuvchi va kemiruvchi hayvonlarning 5 mingdan ziyod suyak qoldiqdari topib o'rganilgan.

Bundan tashqari, g'orning ikkinchi madaniy qatlamidan odam bosh suyagining bir parchasi va 4 ta tish topildi. Keyingi madaniy qatlamda esa 10 ta tish va odam yelka suyagi qoldiqlari aniqlandi. Antropolog olimlarimiz bu qadimiy odam suyaklarini o'rganib, ularning barchasi arxantroplarga, ya'ni ashel odamlariga tegishli, ekanini aniqlashdi. Selung'ur topilmasini qadimgi odam turi vakillari bilan qiyoslash natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, Selungurdagi topilma paleontrop bilan arxantrop o'rtasidagi oraliq holatni egallab, bu taraqqiyotning umumiy yo'nalishidan ancha chetga chiqqan.

Olimlarning fikricha, bu arxaik tuzilishning saqlanishi selungurliklarning dag'al o'simlik ozuqasiga tor miqyosda odatlanganliklari bilan bog'liq. Arxeologik ashyolar tahlilidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, paleontroplarning bu turi

¹ Choriyev.Z., Shaydullayev.SH. Inson tafakkur taraqqiyotining qutlug' qadamlari Jahun jurnali 2000. – B. 19-31.

² Xolmatov N.O'. O'rta Osiyo arxeologiyasi: Tosh asri. – Samarqand: 2020. – B. 26.

osiyolik “Homo sapiens” – hozirgi aqlli odamlarning ajdodlaridan biri bo’lishi mumkin deyish imkonini beradi³.

Selung’urdan topilgan odam qoldiqlari dunyo ilm-fanida insoniyatning paydo bo’lishini aniqlash muammosi yo’lidagi ajoyib kashfiyot sifatida baholanib, unga “Fergantrop” nomi berilishi munosib ko’rildi. Bu voqeadan so’ng O’zbekiston eng qadimgi odam ajdodlari yashagan makonlar qatoriga qo’shildi.

Selungur odamining yashagan davri va uning tuzilishi to’g’risida munozaralar juda uzoq davom etgan. Mazkur manzilgohdan topilgan tishlar 4 ta shaxsga mansubligi aniqlangan. Shulardan biri pastki tish bo’lib, 40 yoshlardagi ayolga tegishli, degan xulosaga kelingan. Topilgan tishlarning birortasida ham karies alomatlari aniqlanmagan.

Selungur makonidan paleoantropologik, paleofaunistik va paleofloristik qoldiqlardan tashqari 5000 ga yaqin tosh buyumlar qo’lga kiritilgan (Islamov, Kraxmal, 1995). Mazkur tosh buyumlarni toshga ishlov berish texnikasiga ko’ra 2 turga ajratilgan: 1) birlamchi ishlov berish ya’ni toshni sindirish (chaqmoqlash) natijasida o’zaklar (nukleus), yo’nilg’i (plastina) va tosh uchirindilar (otshep) olingan. Demak, yodgorlikning tosh industriyasida ilk paleolit davriga xos yirik va qo’pol, zarb maydonchalari keng uchirindilar ko’pchilikni tashkil qiladi. Plastinalar deyarli uchramaydi. Levallua (paleolit davriga xos toshga ishlov berish, chaqmoqlash texnikasining bir turi) turidagi uchirindilar juda kam. Nukleuslar to’plamda ko’p emas, ular, asosan, gardishsimon, sharsimon, bir zarb maydonli, ikki zarb maydonli va kichik hajmdagi o’zaklardir. Selungur o’zaklariga xos bo’lgan jihat shundaki, ular, asosan, haddan tashqari ishlov berilgan tashlandiq ko’rinishlarga ega. 2) Ikkilamchi ishlov berilgan (o’sha sindirib, chaqmoqlab olingan yo’nilg’i va uchirindilarga ishlov berish – retushlash orqali uni biror mehnat yoki ov quroliga aylantirish tushuniladi) tosh buyumlar foizi yodgorlikdagi umumiy toshlarning o’ndan birini tashkil qiladi. Tosh qurollar orasida chopperlar, choppinglar, to’g’ri yoki bo’rtib chiqqan qirrali qirg’ichlar, tishsimon retushli, o’yib-kertib ishlangan hamda kompozit qurollar, retushlangan tosh bo’laklar va uchirindilar mavjud. Bundan tashqari, to’plamda tosh boltalar (kliverlar), ikki taraflama ishlangan qo’l cho’qmorlari (bifaslar), tosh randalar, paykonlar va ikki tig’li paykonlar (limaslar) uchraydi⁴.

Akademik O’tkir Islomovning Selungur va boshqa yodgorliklarda olib borgan ko’p yillik ilmiy izlanishlari 2 monografiya, 40 dan ortiq ilmiy risola va maqolalarda umumlashtirildi. Ana shu asarlarda chiqarilgan muhim xulosalardan biri O’rta Osiyo

³ Академик Ўткур Исломов 80 ёшда / Тузувчи муаллиф М.Хўжаназаров / Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Я.Ғуломов ромидаги археология ин-ти. – Toshkent: Yangi nashr, 2012. – Б. 17.

⁴ Омонов А.М. Марказий Осиёнинг ilk палеолит даври маданиятлари муаммолари (Селунгур ёдгорлиги

мисолида) Ўтмишга назар 2021 №9. – В. 72 – 85.

hududlari ilk pleystotsen davrida ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilgani va ajdodlarimizning ilk tarixi must'e davridan emas, balki quyi paleolit davriga mansub Selungur va boshqa shu kabi yodgorliklardan boshlanishidir. Ya'ni bu ajdodlarimiz tarixi bir million 200 ming yil bilan belgilanadi, deganidir⁵.

O'Isломovning Selung'ur g'orida olib borgan ishlari natijasida hozirgi kunda O'rta Osiyo hududida yashab kelayotgan xalqlar tarixi qadimiy mahalliy ildizlarga ega ekanligi, ular uzluksiz ravishda taraqqiy etib kelganligi isbotlandi. Demak, «Farg'ona odami», «Obiraxmat odami», «Teshiktosh neondertal bolasi» hamda O'rta Osiyo miqyosida paleolit davriga oid antropologik topilmalarning qoldiqlari ona zaminimizga bironta qo'shni hududdan aholi migratsiyasi natijasida odamlar kelib qolmagani, balki bizning ajdodlarimiz tagli-tugli, mahalliy xalqlar bo'lganligi, bu hududlar dunyo miqyosida antropogenez jarayoni ro'y bergan mintaqalar qatoriga kirishini yaqqol ko'rsatadi⁶.

O'tkir Isломovning Farg'ona vodiysidagi arxeologik izlanishlari, uning ilmiy metodologiyasi va izlanishlarga qo'shgan hissasi nafaqat mahalliy, balki jahon arxeologik ilmiy jamoatchiligi uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning ishlarini davom ettirish, Farg'ona vodiysining tarixiy va madaniy merosini saqlash, ilmiy jihatdan o'rganish va uni kelajak avlodlarga yetkazish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Академик Ўткур Исломов 80 ёшда / Тузувчи муаллиф М.Хўжаназаров / Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Я.Ғуломов ромидаги археология ин-ти. – Toshkent: Yangi nashr, 2012. – Б. 17.
2. Омонов А.М. Марказий Осиёнинг илк палеолит даври маданиятлари муаммолари (Селунгур ёдгорлиги мисолида) Ўтмишга назар 2021 №9.
3. Xolmatov N.O'. O'rta Osiyo arxeologiyasi: Tosh asri. – Samarqand: 2020.
4. Choriyev.Z., Shaydullayev.SH. Inson tafakkur taraqqiyotining qutlug' qadamlari Jahun jurnali 2000.

⁵ Академик Ўткур Исломов 80 ёшда / Тузувчи муаллиф М.Хўжаназаров / Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Я.Ғуломов ромидаги археология ин-ти. – Toshkent: Yangi nashr, 2012. – Б. 18.

⁶ Xolmatov N.O'. O'rta Osiyo arxeologiyasi: Tosh asri. – Samarqand: 2020. – Б. 50 – 51.

BANKLAR - MILLIY IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA ASOSIY KUCH

Xoshimov Sevinchbek Xusniddin o'g'li

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on Filiali talabasi

Mardonov Shohrux Muhiddin o'g'li

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on Filiali talabasi

Adress: sevinchbekxoshimov102@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada banklarning moliyaviy vositachi sifatidagi funksiyalari, investitsiyalarni rag'batlantirishdagi roli hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kreditlash tizimi, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va bank xizmatlarining diversifikatsiyasi muhimligi yoritiladi. Maqolada zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda banklarning innovatsion strategiyalari va ular orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlariga ham e'tibor qaratilgan.

Annotation: This article examines the functions of banks as financial intermediaries, their role in stimulating investments, and their significance in ensuring economic stability. It also highlights the importance of credit systems, support for innovative projects, and diversification of banking services in the development of the national economy. Furthermore, the article focuses on the innovative strategies of banks in the context of modern economic conditions and their potential to promote the development of the digital economy. Ultimately, the stable and efficient operation of the banking system is evaluated as a cornerstone of economic growth.

Kalit So'zlar: Bank tizimi, Iqtisodiy o'sish, Investitsiya, Kreditlash, Moliyaviy barqarorlik, Milliy iqtisodiyot, Raqamli iqtisodiyot.

Keywords: Banking system, Economic growth, Investment, Lending, Financial stability, National economy, Digital economy.

Kirish. Milliy iqtisodiyotning barqaror va jadal rivojlanishi har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muvaffaqiyatlari va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda bank tizimi markaziy rol o'ynab, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida maydonga chiqadi. Banklar moliyaviy vositachilik faoliyati orqali kapitalni jamlash, investitsiyalarni jalb qilish, korxonalarni moliyalashtirish va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, **"Har bir tijorat banki dunyoqarashini mutlaqo o'zgartirishi kerak"** Shu munosabat bilan, 2020-yilda "2020–2025-yillarga mo'ljallangan „O'zbekiston Respublikasining bank tizimini

isloh qilish strategiyasi" tasdiqlandi. Ushbu strategiya doirasida davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini joriy etish va banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo'lgan investorlarga tanlov asosida sotish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda bank tizimi nafaqat an'anaviy moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish, balki raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etishda ham yetakchi o'rinni egallaydi. Shu sababli, milliy iqtisodiyotning rivojlanishida bank tizimining ahamiyatini o'rganish va uni yanada samarali qilish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Bank tizimining milliy iqtisodiyotdagi o'rni:

Banklar milliy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular moliyaviy vositachilar sifatida jamg'armalarni iqtisodiyotning turli sohalariga yo'naltiradi, korxonalarni kreditlash orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantiradi va investitsiyalarni rag'batlantiradi. Banklarning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy resurslarni jalb qilish va taqsimlash: Banklar aholi va korxonalarning jamg'armalarini jalb qilib, ularni iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga yo'naltiradi. Bu iqtisodiy resurslarning samarali ishlatilishini ta'minlaydi.
2. Kreditlash tizimi: Kreditlash iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi. Banklar orqali kichik va o'rta biznes subyektlari, yirik korxonalar, shuningdek, qishloq xo'jaligi va sanoat sohaları moliyalashtiriladi.
3. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash: Bank tizimining samarali ishlashi iqtisodiy o'sish va barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Moliyaviy resurslarning oqilona taqsimlanishi inflyatsiyaning oldini olish, valyuta bozorlarini barqarorlashtirish va makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash imkonini beradi.

Banklarning innovatsion roli va raqamli iqtisodiyot:

Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda banklar faqatgina an'anaviy moliyaviy xizmatlar bilan cheklanib qolmasdan, innovatsion xizmatlarni joriy etish orqali raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Masalan:

- Moliyaviy texnologiyalar (fintech): Banklar mobil banking, onlayn to'lov tizimlari va raqamli kartalarni joriy etish orqali moliyaviy xizmatlarni aholiga yanada qulayroq qilib bormoqda.
- Raqamlashtirish jarayonlari: Bank tizimida avtomatlashtirilgan xizmatlar va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi xizmat ko'rsatish tezligini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Investitsiyalarni jalb qilishda banklarning o'рни: Banklar milliy iqtisodiyotning investitsion muhitini yaxshilashda asosiy vositachidir. Ular chet el investitsiyalarini jalb qilish, mahalliy korxonalarning global bozorga chiqishiga ko'maklashish va ichki investitsiyalarni rag'batlantirish uchun moliyaviy vositalar taklif etadi. Xususan:

- Tijorat banklari orqali kichik va o'rta korxonalarni kreditlash ularning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.
- Davlat banklari orqali strategik ahamiyatga ega tarmoqlar, masalan, energetika, transport va infratuzilma rivojlantiriladi.

Bank islohotlari va milliy iqtisodiyotga ta'siri: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan bank tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar doirasida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlar olib borilmoqda:

1. Davlat ulushini qisqartirish: Banklar boshqaruviga zamonaviy menejment usullarini joriy qilish va davlat ulushini qisqartirish orqali bank tizimi samaradorligini oshirish.
2. Xalqaro standartlarni joriy etish: Bank faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish, bu esa investorlarga ko'proq ishonch bag'ishlaydi va global moliya bozorlariga chiqish imkonini oshiradi.
3. Moliyaviy inklyuziya: Aholi va korxonalar uchun bank xizmatlariga keng imkoniyatlar yaratish orqali iqtisodiy faollikni oshirish.

Xulosa

Banklar milliy iqtisodiyotning rivojlanishida strategik ahamiyatga ega institutlar hisoblanadi. Ular moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va kreditlash tizimi orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Zamonaviy sharoitda banklar nafaqat an'anaviy moliyaviy xizmat ko'rsatish, balki raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va innovatsiyalarni joriy etish orqali yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Prezidentimiz **Shavkat Mirziyoyev** tomonidan bank tizimini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiyotning raqamlashtirilishini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu islohotlar bank tizimining xalqaro standartlarga moslashishi, aholi va tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday qilib, banklar iqtisodiy taraqqiyotning tayanch omili sifatida, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va xalq farovonligini ta'minlash yo'lida muhim rol o'ynamoqda. Ularning samarali faoliyatini ta'minlash va rivojlanish istiqbollari belgilash esa milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasining 2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi". Toshkent, 2020
2. Xoliqov R.R., To'raqulov Sh.R. "Moliyaviy vositachilik tizimi va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri." Toshkent, 2019.
3. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti ilmiy jurnali: "Banklar va iqtisodiy barqarorlik." Toshkent, 2021.
4. Moliya vazirligi hisobotlari va statistik ko'rsatkichlari (<https://www.imv.uz/>).
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining nashrlari va statistik ma'lumotlari (CentralBank.uz).
6. Xalqaro moliya institutlari (Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon banki) ma'lumotlari va hisobotlari(IMF.org, WorldBank.org).

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING TURMUSHDAN AJRASHIB KELGAN AYOLLAR BILAN ISHLASHDA XOTIN QIZLAR FAOLI BILAN HAMKORLIGI

*IIV akademiyasi 312 guruh kursanti
Panjiyev Ramazon Dilmurod o'g'li*

Annotatsiya / Аннотация

O'zbek tilida

Ushbu maqolada profilaktika inspektorining turmushdan ajrashgan ayollar bilan ishlashda xotin-qizlar faoli bilan hamkorligi yoritilgan. Maqolada ushbu hamkorlikning ahamiyati, amalga oshirish tartibi va asosiy yo'nalishlari batafsil ko'rib chiqiladi. Xususan, turmushdan ajrashgan ayollar bilan ishlashda psixologik, huquqiy va ijtimoiy ko'mak ko'rsatishning samaradorligi muhokama qilingan.

На русском языке

В данной статье рассматривается сотрудничество инспектора профилактики с активистами женщин в работе с женщинами, пережившими развод. В статье подробно анализируются значимость данного сотрудничества, порядок его осуществления и основные направления. В частности, обсуждается эффективность оказания психологической, юридической и социальной помощи женщинам, пережившим развод.

Profilaktika inspektorining turmushdan ajrashgan ayollar bilan ishlashda xotin-qizlar faoli bilan hamkorligi

Kirish

O'zbekiston jamiyatida ayollarning ijtimoiy himoyasi va huquqlari muhofazasi alohida e'tibor talab qiladigan masala hisoblanadi. Ayniqsa, turmushdan ajrashgan ayollar, o'z huquqlari va farovonligini ta'minlashda ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Statistika ko'ra, turmushdan ajrashish ko'rsatkichlari yil sayin ortib bormoqda, bu esa ayollarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qiynashga olib kelmoqda. Ushbu maqolada turmushdan ajrashgan ayollar bilan ishlashda profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar faollari o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi.

Profilaktika inspektorining vazifalari

Profilaktika inspektorining asosiy vazifasi jinoyatchilikning oldini olish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va ularni huquqiy himoya qilishdan iborat. Xotin-

qizlar, ayniqsa, turmushdan ajrashgan ayollar, ko'pincha jismoniy va ruhiy ta'qibga, iqtisodiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunday vaziyatlarda profilaktika inspektorlari ularni huquqiy yordam bilan ta'minlash, oilaviy zo'ravonliklar va boshqa muammolarni hal qilishda yordam beradi. Bu faoliyat turmushdan ajrashgan ayollarga ijtimoiy, psixologik va huquqiy yordam ko'rsatishning asosiy shaklini tashkil etadi.

Xotin-qizlar faoli bilan hamkorlik

Xotin-qizlar faoli turmushdan ajrashgan ayollarning huquqlari himoya qilishda, ularga psixologik yordam berishda, ishga joylashishda va boshqa sohalarda yordam ko'rsatishda faol ishtirok etadi. Xotin-qizlar faollari jamiyatda ayollarning huquqlarini ta'minlashda, gender tengligini oshirishda va ayollarni iqtisodiy mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda xotin-qizlar faollari ajrashgan ayollarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash, ularga huquqiy maslahatlar berish va psixologik yordam ko'rsatishda samarali ishlaydi.

Ajrashgan ayollarning muammolari va ular bilan ishlash metodlari

Ajrashgan ayollar ko'pincha bir qator muammolar bilan yuzma-yuz keladilar. Ular ichki zo'ravonlikdan aziyat chekkan, iqtisodiy muammolar, uy-joy masalalari, farzandlarini tarbiyalashdagi qiyinchiliklar bilan duch keladi. Shuningdek, jamiyatda kamsitilish va yolg'izlik hissi mavjud. Ushbu holatlarni hal qilish uchun profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar faollari birgalikda psixologik yordam ko'rsatish, huquqiy maslahatlar berish va ajrashgan ayollarga iqtisodiy yordam ko'rsatish bo'yicha bir qator dasturlarni amalga oshiradi. Xotin-qizlar faollari orqali, mahalla darajasida bu muammolarni bartaraf etish uchun maxsus guruhlar tashkil etilib, ularga malakali yordam ko'rsatiladi.

Hamkorlikning amaliy natijalari

Profilaktika inspektori va xotin-qizlar faoli o'rtasidagi hamkorlikning samarasi haqida bir qator muvaffaqiyatli misollar keltirish mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari

“Oila kodeksi” – Oilaviy munosabatlar, ajralish, bola huquqlari masalalari tartibga solingan.

“Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonun – Ajrashgan ayollar bilan ishlashda huquqiy asos.

“Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi qonun – Profilaktika inspektorining vakolatlari va vazifalari.

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi to'g'risidagi nizom – Mahalladagi xotin-qizlar faollari faoliyati.

2. Rasmiy nashrlar va ma'ruzalar

Ichki ishlar vazirligi tomonidan chop etilgan hujjatlar va yo'riqnomalar (profilaktika inspektorlari faoliyati bo'yicha).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari:

“Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar” haqida qarorlar.

Mahalla tizimini takomillashtirish bo'yicha qarorlar.

3. Ilmiy adabiyotlar va maqolalar

Jurnal va ilmiy maqolalar:

“Yuridik fanlar axborotnomasi” – Huquqiy masalalarni o'rganishda yordam beradi.

“Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar jurnali” – Mahalla va jamiyat masalalari yoritiladi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi: Mahalliy adabiyotlar fondidan foydalanish.

Dissertatsiyalar: Turmushdan ajrashgan ayollar bilan ishlashning psixologik va ijtimoiy jihatlari.

4. Xalqaro va mahalliy tashkilotlar tadqiqotlari

BMT – Xotin-qizlar tashkiloti (UN Women): Oila ajralishlarining ijtimoiy ta'siri bo'yicha hisobotlar.

USAID va UNICEF loyihalari: Ayollar huquqlari, zo'rvonlikdan himoya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha adabiyotlar.

5. Kitoblar

Psixologiya va huquqiy adabiyotlar:

“Oila psixologiyasi” – Ajrashgan ayollarning ruhiy holatini o'rganish.

“Inson huquqlari asoslari” – Xotin-qizlarning huquqiy himoyasi.

Mahalliy mualliflarning jamiyat va mahalla masalalariga oid kitoblari.

6. Internet manbalari

Ziynet.uz – Ilmiy maqolalar va elektron kutubxona.

Lex.uz – Qonunchilik hujjatlarining rasmiy sayti.

Mahallatuzilmasi.uz – Mahalla va oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangiliklar.

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING SHAHARLARDA VA BOSHQA AHOLI PUNKTLARIDA OBODONLASHTIRISH QOIDALARINI BUZISH HUQUQBUZARLILIGINI OLDINI OLISHDA SOHAVIY XIZMATLAR O'RTASIDA HAMKORLIK

IIV Akademiyasi 3-o 'quv kursi 315-guruh kursanti

Tolibov Yorqinjon Ravshanjon o'g'li

Anotatsiya: Profilaktika inspektorining shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarliligini oldini olishda sohaviy xizmatlar o'rtasida hamkorlik juda muhim rol o'ynaydi. Bu hamkorlik, birinchi navbatda, joylarda obodonlashtirish ishlari va muhitni himoya qilish bo'yicha to'liq va samarali nazoratni ta'minlashga qaratilgan. Inspektorlar, huquqni muhofaza qilish organlari, mahalliy hokimiyat va boshqa ijtimoiy tashkilotlar birgalikda obodonlashtirish qoidalarini buzish holatlarini aniqlash, oldini olish va ularni bartaraf etish uchun izchil harakat qilishlari zarur. Shu tarzda, har bir tashkilotning o'ziga xos vakolatlarini birlashtirib, ijtimoiy muhitni yaxshilash, ekologik muammolarni hal etish va fuqarolarga sifatli yashash sharoitlarini yaratish maqsadida samarali tizim shakllanadi.

Anotation: The prevention inspector plays a very important role in preventing violations of the rules of improvement in cities and other settlements. This cooperation is aimed, first of all, at ensuring full and effective control over the improvement work and environmental protection in the areas. Inspectors, law enforcement agencies, local authorities and other social organizations should work together to identify, prevent and eliminate violations of the rules of improvement. In this way, by combining the specific powers of each organization, an effective system is formed to improve the social environment, solve environmental problems and create quality living conditions for citizens.

Kalit so'zlar: Profilaktika inspektori, shaharlar, aholi punktlari, obodonlashtirish, qoidalar, huquqbuzarlik, oldini olish, sohaviy xizmatlar, hamkorlik, muhitni himoya qilish, huquqni muhofaza qilish, mahalliy hokimiyat, ekologiya, yashash sharoitlari, tizim.

Key words Preventive inspector, cities, populated areas, urban planning, regulations, violations, prevention, sector services, cooperation, environmental protection, law enforcement, local authorities, ecology, living conditions, system.

Kirish: Obodonlashtirish qoidalarining buzilishi, shaharlar va boshqa aholi punktlarida ekologik muvozanatni buzishi, yashash sharoitlarini yomonlashtirishi hamda jamoat salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun,

obodonlashtirish sohasida huquqbuzarliklarni oldini olish, faqatgina bir organning emas, balki turli sohaviy xizmatlarning hamkorlikda ishlashini talab qiladi. Profilaktika inspektorlari bu jarayonda markaziy ro'l o'ynab, obodonlashtirish qoidalariga rioya qilinishini nazorat qiladi, shu bilan birga huquqni muhofaza qilish organlari, mahalliy hokimiyat va boshqa tegishli tashkilotlar bilan birgalikda harakat qilishlari zarur. Bu hamkorlik orqali, shaharlarning obodonlashtirilgan va ekologik jihatdan barqaror bo'lishi uchun zarur choralar ko'riladi, hamda fuqarolarga sifatli yashash sharoitlari ta'minlanadi.

Shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish, faqatgina estetik jihatdan emas, balki ekologik va ijtimoiy nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Obodonlashtirish qoidalarining buzilishi esa nafaqat shahar ko'rinishini buzadi, balki atrof-muhitni ifloslantiradi, fuqarolarning salomatligiga ta'sir qiladi va jamoat xavfsizligini xavf ostiga qo'yadi. Bunday holatlarning oldini olish, shuningdek, obodonlashtirishni samarali boshqarish uchun turli ijtimoiy va davlat tashkilotlari o'rtasida yaqin hamkorlikni talab etadi. Profilaktika inspektorlari, obodonlashtirish qoidalarini buzish holatlarini aniqlash va oldini olishda asosiy vakolatli organlardan biridir. Ular, o'z faoliyatlarini faqat tekshirish va jazolash bilan cheklamaydilar, balki turli sohaviy xizmatlar – huquqni muhofaza qilish organlari, mahalliy hokimiyatlar, ekologik nazorat tashkilotlari, va ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashlari kerak.

Hamkorlikning samarali tashkil etilishi, obodonlashtirish qoidalarining buzilishiga qarshi kurashishda kengroq tizim yaratish imkonini beradi. Bu tizimda har bir tashkilot o'zining vakolatlarini va mas'uliyatini to'g'ri amalga oshirib, shaharlarni va boshqa aholi punktlarini ekologik jihatdan barqaror va yashash uchun qulay muhitlarga aylantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu hamkorlik, fuqarolarga obodonlashtirish qoidalarining ahamiyatini tushuntirish va ularni sog'lom yashash sharoitlari bilan ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Shunday qilib, profilaktika inspektorlarining faolligi va turli sohaviy xizmatlar bilan hamkorlik o'rnatish, obodonlashtirishni muvaffaqiyatli boshqarishning kalitiga aylanishi mumkin.

Dolzarb muammolar:

1. **Obodonlashtirish qoidalarining buzilishi va nazoratning etishmasligi:** Obodonlashtirishning asosiy qoidalari va talablariga rioya qilmaslik holatlari hali ham keng tarqalgan. Ko'plab aholi punktlarida o'rnatilgan qoidalar buzilmoqda, chunki zarur nazorat mexanizmlari yetarlicha samarali ishlamayapti. Bu esa atrof-muhitni ifloslantirish, ko'chalar va yashash joylarining estetik holatining yomonlashishiga olib keladi.

2. **Sohaviy xizmatlar o'rtasida hamkorlikning yetishmasligi:** Obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarligini oldini olishda sohaviy

xizmatlar o'rtasida samarali hamkorlik yo'qligi hali ham muammo sifatida mavjud. Inspektorlar, huquqni muhofaza qilish organlari, mahalliy hokimiyat va ekologik xizmatlar birgalikda harakat qilishda ba'zan aloqa va o'zaro tushunmovchiliklar tufayli samarali ish olib bormaydilar. Bu, o'z navbatida, obodonlashtirishga oid qoidalarni buzishni oldini olishda jiddiy to'siqlarni keltirib chiqaradi.

3. **Fuqarolarning obodonlashtirish qoidalariga nisbatan befarqligi:** Aholi orasida obodonlashtirish qoidalariga e'tibor bermaslik holatlari ko'p uchraydi. Ba'zi fuqarolar, obodonlashtirishning ekologik va ijtimoiy ahamiyatini to'liq tushunmasdan, qoidalarga amal qilmaydilar. Bu muammo, obodonlashtirishning samarali amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladi va bu masalada profilaktika inspektorlarining o'rni beqiyosdir.

